



**TA'LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANI
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Pedagogika-psixologiya
va inkluziv ta'lim fakulteti talabasi**

Xo'jaqulova Dilnura Xusniddin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Maqolada ichki va tashqi motivatsiya tushunchalari, pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, loyiha va guruh ishlari orqali o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish usullari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglarga ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, o'quvchi faolligi.

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы формирования мотивации учащихся в образовательном процессе. Рассматриваются понятия внутренней и внешней мотивации, педагогические подходы, а также способы стимулирования активности учащихся через интерактивные методы, проектную и групповую работу. Результаты исследования помогают педагогам организовать образовательный процесс более эффективно и повысить внутреннюю мотивацию учеников.



Ключевые слова: мотивация, образовательный процесс, педагогический подход, интерактивные методы, активность учащихся.

Abstract. This article analyzes effective methods for developing student motivation in the educational process. It covers concepts of intrinsic and extrinsic motivation, pedagogical approaches, and ways to stimulate student engagement through interactive methods, project work, and group activities. The study results provide guidance for teachers to organize the educational process more effectively and enhance students' intrinsic motivation.

Keywords: motivation, educational process, pedagogical approach, interactive methods, student engagement.

Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bunday jarayonda eng muhim omillardan biri — motivatsiya, ya'ni o'quvchining o'qishga bo'lgan ichki qiziqishi, faol ishtirok etishga tayyorligi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi. Motivatsiya shakllanmagan ta'lim jarayoni samarali bo'la olmaydi, chunki o'quvchilar faqat tashqi bosim yoki majburiyat tufayli faoliyat yuritadi va bilimni chuqur egallash darajasi past bo'ladi. Shu sababli, pedagogik faoliyatda motivatsiyani shakllantirish o'quv jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir.

Pedagogika fanida motivatsiya ikki turga bo'linadi: *ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya*. **Ichki motivatsiya** o'quvchining shaxsiy qiziqishi, o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji va o'z-o'zini rivojlantirish istagi bilan bog'liq bo'lsa, **tashqi motivatsiya** baholar, mukofotlar, rag'batlantirish tizimi yoki tashqi bosim orqali shakllanadi. Ta'lim jarayonida ushbu ikki tur motivatsiyani uyg'unlashtirish pedagogga o'quvchilarni samarali rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish imkonini beradi.



Motivatsiyani shakllantirishning samarali usullari nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini, mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida motivatsiya masalasi faqat o'quvchilarning o'quv yutuqlari bilan cheklanmay, balki ularning shaxs sifatida yetilishi va hayotga tayyorligini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Maqolada motivatsiyani shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlar, shuningdek, loyiha ishlari, guruh mashg'ulotlari va individual yondashuvlar orqali o'quvchilarning ichki faolligini rag'batlantirish usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagoglarga ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishda amaliy yo'nalishlar beradi.

Motivatsiya atamasi lotincha “movere” — “harakatlantirmoq” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonning ma'lum bir faoliyatni bajarishga bo'lgan ichki yoki tashqi intilishi, qiziqishi va harakatlantiruvchi kuchlarini anglatadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida motivatsiya — bu shaxsning maqsad sari intilishidagi psixologik jarayon bo'lib, u shaxsiy ehtiyojlar, qadriyatlar, qiziqishlar va tashqi rag'batlar bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quvchining o'zini o'qishga bag'ishlashi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va faol ishtirokini rag'batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Motivatsiyasiz o'quv jarayoni samarali bo'lmaydi: o'quvchi bilimni mexanik ravishda qabul qiladi, chuqur anglash va mustaqil fikrlash qobiliyati yetishmaydi. Shu sababli, motivatsiya pedagogning faoliyati orqali shakllanadigan va mustahkamlanadigan ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida ko'riladi.



Pedagogik amaliyotda motivatsiya ikki asosiy turga bo'linadi: ichki va tashqi motivatsiya. *Ichki motivatsiya* — o'quvchining o'z qiziqishi, bilim olishga bo'lgan shaxsiy istagi va o'zini rivojlantirishga intilishi bilan bog'liq. Ichki motivatsiya o'quvchida faoliyatni ichki qoniqish va shaxsiy maqsadni amalga oshirish orqali rag'batlantiradi. Masalan, o'quvchi yangi mavzuni o'rganishni o'zining shaxsiy qiziqishi tufayli xohlashi, mustaqil izlanishlar olib borishi ichki motivatsiyaning namunasidir. *Tashqi motivatsiya* o'quvchining faoliyatini baholar, mukofotlar, maqtovlar yoki pedagogning tashqi rag'batlari orqali rag'batlantiradi. Masalan, testda yuqori ball olish, sinfdoshlar oldida maqtovg'a sazovor bo'lish yoki mukofot olish tashqi motivatsiyaning aniq namunasidir. Tashqi motivatsiya o'quvchilarni faoliyatga jalb qiluvchi, ularni rag'batlantiruvchi vosita sifatida pedagogik jarayonda keng qo'llaniladi.

Samarali ta'lim jarayonida ichki va tashqi motivatsiya uyg'unlashadi. Pedagoglar o'quvchilarning ichki qiziqishini rivojlantirishga harakat qilgan holda, zarurat tug'ilganda tashqi rag'batlardan ham foydalanadilar. Masalan, o'quvchi loyihani o'z qiziqishi bilan amalga oshiradi, lekin yakuniy baho va maqtovlar orqali qo'shimcha rag'batlanadi.

Motivatsiyaning pedagogik jarayonda bir nechta muhim funksiyalari mavjud:

- *Faollashtiruvchi funksiyasi* – o'quvchini o'qishga, tadqiqot va ijodiy faoliyatga jalb qiladi. Motivatsiya kuchli bo'lsa, o'quvchi mavzuga faol ishtirok qiladi va bilimni chuqur egallaydi.
- *Rag'batlantiruvchi funksiyasi* – o'quvchi o'z maqsadlarini amalga oshirishga intiladi, sinovlar va qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladi.



➤ *Yo'naltiruvchi funksiyasi – o'quvchi faoliyatini aniq maqsadlar sari yo'naltiradi, masalan, bilim olish, muammolarni hal qilish yoki loyiha tayyorlash.*

➤ *Mustahkamlovchi funksiyasi – o'quvchi erishgan natijalari va qobiliyatlarini mustahkamlash orqali o'z-o'zini rivojlantirishga intiladi.*

Ta'lim jarayonida motivatsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchida o'zini o'qishga bag'ishlash hissini shakllantirish – o'quvchi bilim olishni majburiyat emas, balki o'zining shaxsiy ehtiyoji sifatida qabul qiladi.
- Faoliyatni doimiy va uzluksiz qilish – motivatsiya o'quvchini muntazam ishlashga, uy vazifalarini bajarishga va mustaqil izlanishlar olib borishga rag'batlantiradi.
- O'zini rivojlantirish va shaxsiy maqsadlarni belgilash – motivatsiya o'quvchida shaxsiy o'sish va rivojlanish istagini uyg'otadi.
- Ijodiy va analitik fikrlashni rivojlantirish – motivatsiyaga ega o'quvchi muammoli vazifalarni hal qilish, yangi g'oyalarni yaratish va mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi.
- Ijtimoiy faollikni oshirish – motivatsiya o'quvchining sinf va jamiyatdagi faol ishtirokini kuchaytiradi, guruh ishlari va hamkorlikka tayyorlaydi.

Motivatsiya — bu inson harakatlarini yo'naltiruvchi, ularni davom ettiruvchi va maqsad sari intilishni ta'minlovchi psixologik jarayon. Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quvchining qiziqishi, ichki intilishi va tashqi rag'bati orqali bilim olishga faol ishtirok etishini belgilaydi. Bu tushuncha psixologlar



tomonidan uzoq yillardan buyon o'rganilib, ta'lim samaradorligini oshirishda asosiysi hisoblanadi.

Richard M. Ryan va Edward L. Deci motivatsiyani o'rganish bo'yicha mashhur nazariyani ishlab chiqdilar — Self-Determination Theory (SDT). Unga ko'ra, motivatsiya ikki asosiy turga bo'linadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya o'quvchini faoliyatni o'zidan kelib chiqqan qiziqish bilan bajarishga undaydi, tashqi motivatsiya esa baholar, mukofotlar yoki tashqi talablar tufayli yuzaga keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichki motivatsiya o'quvchilarda chuqur bilim olish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi. Amerikalik psixolog Abraham Maslow motivatsiyani tushunishda klassik nazariyani taklif qilgan. Uning ehtiyojlar ierarxiyasiga ko'ra, insonning motivatsiyasi uning turli darajadagi ehtiyojlarini qondirishga bog'liq bo'lib, bu ehtiyojlar piramida ko'rinishida joylashadi:

fiziologik ehtiyojlar → xavfsizlik → ijtimoiy ehtiyojlar → hurmat → o'zini anglash.

Ta'lim nuqtai nazaridan bu shuni anglatadiki: O'quvchining asosiy ehtiyojlari qondirilmagan bo'lsa, u bilim olishga to'liq e'tibor qaratolmaydi. O'zini anglash darajasi (masalan, o'rganish orqali o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etish) motivatsiyaning eng yuqori shakli hisoblanadi. Maslou ta'kidlaganidek, o'quv muhitida ishonch, hurmat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lsa, o'quvchilarda motivatsiya yuqori bo'ladi.

Vygotskiy va "zona yaqin taraqqiyot" tushunchasi. Psixolog Lev Vygotskiy o'quv jarayonida motivatsiyaning shaxsiy faoliyat bilan bog'liqligini ishlab chiqqan. U "zona yaqin taraqqiyot" (ZNT) nazariyasini



ilgari surdi — bu o'quvchining mustaqil bajaradigan vazifasi va o'qituvchi yordami bilan bajaradigan vazifasi orasidagi farq.

Vygotskiyga ko'ra, agar vazifa o'quvchi darajasiga mos, ammo biroz qiyin bo'lsa, bu uning motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu shuni anglatadiki: o'quvchi topshiriqni qiyinchiliksiz bajara olmasa, lekin u yetakchi yondashuv bilan uni bajarish imkoniga ega bo'lsa, u faoliyatga ko'proq motivatsiyalanadi.

Ta'lim jarayonida motivatsiya o'quvchilarning faoliyati, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va shaxsiy rivojlanishi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar va olimlarning fikrlariga ko'ra, motivatsiya faqat tashqi rag'batlar orqali emas, balki ichki intilishlar, shaxsiy ehtiyojlar va qiziqishlar bilan ham shakllanadi.

Maslou nazariyasi motivatsiyani tushunishda muhim rol o'ynaydi: insonning pastki darajadagi fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlari qondirilmagan bo'lsa, u yuqori darajadagi o'zini anglash va ijodiy faoliyatga intilolmaydi. Shu sababli, pedagoglar o'quvchilarning ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirishga e'tibor qaratishlari zarur.

Respublikamizda maktab ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, Respublikamizda yigit va qizlar o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyaviy-axloqiy ishlarni takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi No PF-134-son Farmonida o'quvchilartarbiyasida ota-onalar, mahallalar va ta'lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil borasidagi burch va massuliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Natijada o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratish hamda har bir 5-11-sinf o'quvchisi uchun elektron Ish daftarini



joriy etish. Xalq talimi tizimida o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platformani yaratish imkoniyatlar yaratildi. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga-ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalashdir. Chunki ta'lim yoshlar ma'naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta'lim-tarbiya orqali ro'yobga chiqishi aniq va ravshandir.

Xulosa: Ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan munosabati va pedagogik odobi, psixologik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak o'qituvchi va ota-onalarning farzanlariga bo'lgan munosabatini ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va bilimlarni egallashdagi harakatlarida namoyon bo'lishida odob-axloqi ham katta ahamiyatga egadir, bolaning yoshligidan to'g'ri motivatsiya berib qilgan ishidan rag'batlantirib kelajakdagi ishlariga yo'naltira olsa, har bir bola o'z qobiliyatlarini yaxshi rivojlantirib namoyyon qila oladi, o'z oldiga maqsadlar qo'ya oladi va maqsadlar sari intilishda o'ziga motivatsiya topa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova, D.R. (2021). Motivatsiya va ta'lim jarayoni.
2. Bandura, A. (1977). Self-Efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change. Psychological Review.



3. Eshonxo'jayeva, L. (2019). Boshlang'ich ta'limda o'qishga motivatsiyani oshirish.
4. Feruzaxon, M. (2022). Ta'lim jarayonini tashkil etishda motivatsiyani oshirish.
5. Keller, J.M. (1987). Development and Use of the ARCS Model of Instructional Design. *Journal of Instructional Development*.
6. Maslow, A.H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*.
7. Nozimov, J.T. (2020). Masofaviy ta'limda talabalarda motivatsion hissini shakllantirish.
8. Ryan, R.M., & Deci, E.L. (2000). Self-Determination Theory and Intrinsic Motivation in Education. *Contemporary Educational Psychology*.
9. Schunk, D.H. (2012). *Learning Theories: An Educational Perspective*. Pearson.